

OKUBO TOSHIMICHI VA UNING MEIJI DAVLATINING TASHKIL TOPISHIDA TUTGAN O'RNI

Rustam Mamajonov

Tayanch doktorant

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya. Meiji davlati tashkil topishida Okubo Toshimichining siyosiy faoliyati tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor uning "jamoat hokimiyati" (公-*kou*) tushunchasiga asoslangan davlat qurish strategiyasiga qaratiladi. Okuboning Yaponiyaning g'arb bosimi ostida zamonaviy davlatga aylanish jarayonida qanday hal qiluvchi rol o'ynagani ko'rsatiladi. Tadqiqot Okuboni ideolog emas, balki Yaponiyaning siyosiy mustaqilligi va barqaror modernizatsiyasini ta'minlagan davlat arbobi sifatida talqin qiladi.

Kalit so'zlar: Meiji davri, Okubo Toshimichi, Tokugava Shogunligi, imperator hokimiyati, modernizatsiya, Vakon yosai.

Meiji davri Yaponiya tarixida muhim burilish bosqichi hisoblanadi. Ushbu davrda Meiji davlatining shakllanishida ko'plab siyosiy arboblarning hissasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Ushbu tezisda ana shunday yetakchi shaxslardan biri bo'lgan Okubo Toshimichi shaxsiyati tahlil qilinib, uning Meiji davlatining barpo etilishi va rivojiga qo'shgan hissasi yoritib beriladi.

Meiji islohoti Yaponiya tarixidagi eng keskin burilish nuqtalaridan biri hisoblanadi. Ushbu davrda Yaponiya g'arb hukmron bo'layotgan global tizimga majburan kirib borar ekan, mamlakatning siyosiy mustaqilligi va madaniy o'zligini saqlab qolish masalasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Ana shunday tarixiy vaziyatda yetakchi siyosiy arboblardan biri sifatida Okubo Toshimichi maydonga chiqdi. U nafaqat Tokugava shogunligini ag'darishda, balki imperator markazida zamonaviy davlat barpo etishda asosiy rol o'ynadi.

Okubo Toshimichi 1830-yilda Yaponiyaning Satsuma (hozirgi Kagoshima prefekturasi) domenida quyi samuray oilasida tug'ilgan. U yoshligidan Satsumaga xos bo'lgan jamoaviy ta'lim tizimi (郷中 – *gochu*) asosida tarbiya olgan. Uning siyosiy

dunyoqarashi va yetakchilik fazilatlarining shakllanishida Satsuma hanining yetakchilari – Shimazu Nariakira va Shimazu Hisamitsuning ta'siri muhim ro'l o'ynagan. Keyinchalik u Meiji davlatining tashkil topishiga qo'shgan hissasi uchun Kido Takayoshi va Saigo Takamori bilan birgalikda "Meiji inqilobining uch buyuk arbobi" (維新三傑 – ishin sanketsu) deb nomlandi.

XIX asr o'rtalarida Yaponiya g'arb bosimi ostida global iqtisodiy-siyosiy tizimga tortildi. Perry flotining kelishi bilan Yaponiya o'zini tashqi dunyodan ajratib yashashni davom ettira olmasligini angladi. Bu vaziyat mamlakatni ikkita yo'l oldida qoldirdi: g'arbga bo'ysunish yoki ongli ravishda mamlakatni zamonaviy davlat qilish. Okubo va Satsuma elitesining tanlovi ikkinchi yo'l bo'ldi. Ular Yaponiya "zamonaviy dunyo tizimi"ning bir qismiga aylanishi zarur deb bildilar.

Dastlab Okubo imperator va shogunlik ittifoqiga asoslangan siyosat (公武合体 – kobu gattai)ni qo'llab-quvvatladi. Bu yo'l orqali u mamlakat ichki birlikni saqlagan holda g'arbga qarshi tura oladi deb o'ylagan. Biroq shogunlikning Choshu hanligiga qarshi harbiy yurishlari uning bu ishonchini yemirdi. Shogunat o'zini "davlat" emas, balki "alohida hukumat" sifatida tutayotganini namoyon qildi.

Choshu yurishlarining muvaffaqiyatsizligi shogunlik siyosiy legitimligini yo'q qildi. Shu paytdan boshlab Okubo uchun muammo shogunlik emas, balki jamoat hokimiyati (公-kou)ni qayta tiklash masalasiga aylandi. Bu esa imperator markazida markazlashgan davlat qurishni anglatardi. Shu tariqa 王政復古 – osei fukko ya'ni imperator hokimiyatining tiklanishi siyosiy loyiha sifatida maydonga chiqdi.

Okuboning barcha harakatlarini bir tushuncha birlashtiradi – "公", ya'ni davlat va xalq manfaati. U qaysi tuzum mamlakatni saqlab qola olsa, o'shani qo'llab-quvvatladi. Shogunlik bunga qodir bo'lmagach, u imperator boshchiligidagi yangi davlatni barpo etishga kirishdi. Shu ma'noda, Okubo mafkurachi emas, balki real siyosatchi edi. Keyinchalik Okubo Toshimichi mamlakatda sanoatlashtirish siyosatini amalga oshirishda yetakchi rol o'ynadi va Meiji hukumatining iqtisodiy modernizatsiya dasturlariga rahbarlik qildi.

Okubo Toshimichi Meiji islohotining eng muhim me'morlaridan biri bo'ldi. U Yaponiya g'arb hukmron bo'layotgan dunyoda yo'qolib ketmasligi uchun davlatni

qayta tashkil etishda faol ishtirok etdi. Edo davri bilan Meiji davri o'rtasidagi uzilish emas, balki davomiylikni ta'minladi. Uning strategiyasi “和魂洋才– vakon yosai” – yapon ruhi va g'arb texnologiyasining uyg'unligi edi. Shu sababli Okubo nafaqat o'z zamonasining, balki Yaponiya tarixining eng muhim davlat arboblardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. 岡部敏和. 大久保利通を通してみる明治維新の課題 – 「公武合体」から「王政復古」への政策転換に関する考察–// 地域政策研究 – *Regional Policy Studies*. – 宮崎: 宮崎経済大学地域政策学会, 2002. – 第4巻, 第4号. – P. 19–25.
2. 山脇之人. 維新元勳十傑論. – 東京, 1884. – P.16.
3. 日隈美朱. 大久保利通の殖産興業政策と官庸外国人 // 人文科学論集. – 2019. – № 98 – 頁 51–67.